



Tadqiqot UZ

ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



31 AVGUST
№31

CONFERENCE.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 31-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
23 - ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
31-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-23**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
31-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-23**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 31-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 15 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибод Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**АГРОПРОЦЕССИНГ РИВОЖЛАНИШ
ЙЎНАЛИШЛАРИ**

1. Botirova Durdigul Rustam qizi	
TOK UNSIMON VA KOMSTOK QURTLARIGA QARSHI-KURASH USULLARINI TO‘G‘RI TASHKIL ETISH	7
2. Botirova Durdigul Rustam qizi	
TOK KANASI ZARARKUNANDASINING HAYOT KECHIRISHI VA UNGA QARSHI KURASHISH USULLARI.....	9
3. Botirova Durdigul Rustam qizi	
TOKNI ISHKOMDA VA HIYOBON USULIDA O‘STIRISHNING SAMARADORLIGI VA KAMCHILIKLARINI O‘SUV DAVRIGA TA’SIRI.....	11
4. Ботирова Дурдигуль Рустам кизи	
ВЛИЯНИЕ, ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ДЕФЕКТЫ МЕТОДОВ ВЫРАШИВАНИЯ ВИНОГРАДНИКА ВО ВРЕМЯ РОСТА НА ЗЕМЛЕ	13



АГРОПРОЦЕССИНГ РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

**TOK UNSIMON VA KOMSTOK QURTLARIGA QARSHI-KURASH USULLARINI
TO‘G‘RI TASHKIL ETISH**

Botirova Durdigul Rustam qizi
Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda tokga bo‘lgan talab kun sayin ortib borayotganligini hisobga olgan holda, undan mo‘l va sifatli hosil olish dolzARB muommolardan biri hisoblanadi. Buning uchun tokzorlarni yaxshilab parvarish qilish, kasallik va zararkunandalarga qarshi o‘z vaqtida sifatli kurashish lozim. Shunday ekan, ushbu maqolada tokda keng tarqalagan zararkunandalardan biri tok unsimon va komstok qurtlarining hayot kechirishi, zarari bilan tanishib chiqqan holda to‘g‘ri qarshi kurash usullarini qo‘llashni o‘rganamiz.

Kalit so‘zlar: Zararkunanda, tok unsimon qurti, komstok, o‘simga, oq mumsimon tuk, dum ipi, mo‘ylovi, lichinka, qurt, qanot, bo‘g‘im, ko‘z,

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda olib borilayotgan islohatlar, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jadal sur’atar bilan rivojlanib bormoqda. Bu borada qishloq xo‘jaligining qadimiy serdaromad sohalaridan hisoblangan uzumchilikni rivojlantirish ham chetda qolmadi.

Bog‘ ne’matlaridan bo‘lmish uzumdan yuqori va sifatli hosil olish hamda ularga bo‘lgan aholi ehtiyojini qondirish uchun bu o‘simga turli zararkunandalardan himoya qilish lozim. Mutaxassislarining fikrlariga ko‘ra zararkunandalarga qarshi kurashda har bir zararkunandaning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni bilmay turib, ularga qarshi olib borilayotgan tadbirdaridan yaxshi natija kutib bo‘lmaydi.

Shunday ekan, tokda keng tarqalgan hamda tuzilishi va hayot kechirishi bir-biriga yaqin bo‘lgan tok unsimon va komstok qurtlari bilan yaqindan tanishib chiqamiz. Tok unsimon qurti uzumga ba’zan kuchli zarar keltirishi bilan komstokdan farq qiladi. Komstok qurti esa O‘zbekistonning barcha hududlarida uchrab , keng tarqalganligi bilan ajralib turadi.

Ushbu zararkunandalarning tashqi tuzilishida turli shakllanish kuzatilishini ko‘rishimiz mumkun. Tok unsimon qurtining urg‘ochisi qanotsiz, kattaligi 3,5-4 mm bo‘lib, sekin harakatlanadi. Tashqi tomondan kuzatganimizdan tanasining oval shaklda ekanligi va uning atrofida 17 juft mumsimon ip ko‘rinishida o‘siglar borligini guvohi bo‘lamiz. Bu o‘siglarning oxirgi jufti qolganlaridan uzun bo‘lib, dum shaklida bo‘ladi. Biz aynan ushbu o‘simgalarga qarab, har ikkala qurtlarning urg‘ochilarini farqlay olamiz. Bunda, qurtining o‘simgalari kalta, komstok qurtiniki esa uzun bo‘lib, tanasining yarmigacha keladi. Qurt sarg‘ish-jigarrang tusda bo‘lib, maxsus bezlar maxsuli ya’ni oq mumsimon qoplama bilan qoplangan. Qurtning erkak zotlari urg‘ochilaridan mayda bo‘lib, 1,2-1,5 mm ga teng. Tanasining oxirida ikkita dum ipi, boshida esa uzun cho‘tsimon mo‘ylovi bo‘lgan bir juft qanotli hashorat hisoblanadi.

Komstok qurtlari voyaga yetmagan lichinkalik shaklida, tok unsimon qurti esa tuxum shaklida bo‘lib, ko‘pincha po‘stloqlar ostida hamda turli pana joylarda qishlab chiqadi. Komstok qurtining lichinkalari, tok unsimon qurtining esa voyaga yetgan urg‘ochi zotlari bahorda, mart oyining oxiri-aprel oyining boshlarida paydo bo‘lishini kuzatishimiz mumkun.

Shuningdek, ular oziqlangach, voyaga yetganlari asosan partenogenetik tuxum qo‘yib, ko‘paya boshlaydi. Bunda har bir urg‘ochi zot 15-30 kun ichida, jami 250-600 ta tuxum qo‘yishi mumkun. So‘ng tuxumdan ochib chiqqan lichinka 3 yoshni boshdan kechiradi. Uchinchisi tinchlik davrni kechib, yana yetuk urg‘ochi zotga aylanadi.

Bir mavsum davomida unsimon qurtlar 3-4 bo‘g‘in berishi mumkun. Bunda har ikkala qurtlarning barcha hayotiy shakllari qishlab qolishi mumkun. Biroq, komstok qurtining faqat ovisak-to‘rvadagi tuxumlari, tok unsimon qurtining esa faqat yetilmagan urg‘ochi zotlarigina omon qoladi, qolganlari esa qirilib ketadi.



Komstok qurti teng qanotlilar tarkumiga mansub bo'lib, urg'ochisi 3-4 mm, tuxum qo'yish davrida esa 5-6 mm ga yetadi. Tok unsimon qurtnikiga o'xshab buning ham tanasi oq mumsimon tuk bilan qoplangan bo'lib, chetlarida 17 juft o'simtalari bor. Bundan tashqari, tana uzunligining yarmiga teng keladigan 2 ta dum o'simtasi ham mavjud. Oyoqlari yaxshi rivojlangan kalta tuk bilan qoplangan, son va boldirining pastki tomoni sertuk. Ko'zlar yirik, mo'ylovlari 8 bo'g'imli. Komstok qurtining erkagi 1-1,5 mm, qanoti esa qizg'ish jigarrang, ko'zlar qora bo'lib, qizil doira bilan o'ralgan, mo'ylovlari 10 bo'g'imli.

Tuxumi oval shaklda, 0,3 mm bo'lib bir uchi biroz toraygan, sariq zarg'aldoq rangda. Birinchi yoshli lichinkasi 0,45 mm, oval shaklda, oziqlana boshlashi bilan oq mumsimon modda bilan qoplangan 2 ta o'simtasi borligi ko'rindi. Uning yon o'simtalari yo'q. Ikkinci yoshli lichinka 1mm, mo'ylovi 6 bo'g'imli, hamda 2 va 3 yoshli lichinkalari yon tomonida 16 juftdan o'simtasi bor. U tokning ildizida, xazonlar ostida tuxumlik bosqichida qishlaydi. U bir yilda 3-4 marta avlod beradi.

Bu zararkunandalarning lichinkalari sanchib so'ruvchi og'iz apparatiga ega bo'lib, u orqali tokning turli a'zolarini ya'ni barg, tana, novda, mevalarini shikastlashi mumkun. Natijada, shikastlangan o'simliklar o'sish va rivojlanishdan orqada qolganligini, hosilning esa 50-70 % gacha kamayganligini guvohi bo'lamiz.

Agar tokdan shira ko'proq oqib tushsa yoki chumolilar miqdori ortib ketsa, zudlik bilan qarshi kurash choralarini olib borishimiz lozim bo'ladi. Chunki, bu belgilar tokda unsimon qurtlar borligidan darak beradi.

Dastlab, qarshi kurash sifatida agrotexnik hamda tashkiliy-xo'jalik tadbirlarini o'z vaqtida sifatli amalga oshirishimiz kerak. Bu usul oddiy lekin, shunga qaramasdan samaradorligi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bunda tok tupining rivojlanishi uchun sharoit qulay bo'lishi uchun to'g'ri yer tanlash lozimligini inobatga olishimiz zarur. Shunindek, tok qator oralarini chuqur haydashni ham yo'lga qo'yishimiz lozim. Vaqt-vaqt bilan uzumzorlarimizni begona o'tlardan ham tozalab turish lozim. Aks holda, ular zararkunandalarning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Bu yerda har bir agrotexnik tadbirni zararli organizmlarga to'g'ri ta'sir etishiga ahamiyat berishimiz kerak. Agrotexnik tadbirlarni noto'g'ri qo'llash zararli organizmlarning miqdorini ko'payisiga ham olib kelishi mumkun. Agrotexnik tadbirlar tashkiliy-xo'jalik tadbilarni to'g'ri tashkillashtirish zararkunandalarning yoppasiga ko'payishini oldini olish asosini tashkil etadi.

Ikkinci usul biologik kurash hisoblanib, bunda bu qurtlarning tabiiy kushandasini hisoblangan bona pashhasidan foydalaniladi. Natijada, zararkunandalarni ko'pgina qismi yo'qotiladi va ularning ko'payishiga yo'l qo'yilamaydi. Bu usul qishloq xo'jalik hayvonlari, insonlar va atrof muhit uchun bezararligi bilan alohida ahamiyatga ega va hozirgi kunda keng foydalanimlib kelinmoqda.

Uchunchi usul kimyoviy kurash hisoblanib, tez ta'sir etish kuchiga ega bo'lganli va zararkunandaning tarqalishini qisqa muddat mobaynida to'xtatishi bilan e'tiborni tortadi. Biroq buning atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishini ham hisobga olish lozim. Kimyoviy kurash sifatida turli sintetik piretroid hamda fosfororganik insektitsidlardan foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi. Biroq bunda, preparatlarning miqdori va qo'llash sifatiga ahamiyat qaratish lozim.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkunki, har ikkala hashoratning tuzilishi hamda hayot kechirishi, zarari bir-biriga juda yaqin bo'lganligi sababli ularga qarshi kurash usullari bir xil bo'ladi. Agar biz agrotexnik hamda tashkiliy tabirlar, biologik, kimyoviy kurash usullarini o'z vaqtida samarali olib borsak toklarimiz kasallikka chidamli bo'ladi. Ammo bularga amal qilmasak, tok unsimon va komstok qurtlarining zararidan novdalar qo'ng'ir-qiyshiq, barglar sarg'ayib qurib qoladi. Tokning ildiz, novdasidalarida esa yoriqlar paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharapova M.M. "Uzumchilik sanoati" Buxoro-2006, 91-bet.
2. U.I.Mamatov. "Uzum yetishtirish" "Agrobank" ATB. 2021, 85-86 betlar.
3. R.Yunusov va boshqalar. "Bog'dorchilik" "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent.2016, 141-bet.
4. Sh.Temurov. "Uzumchilik" "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2002, 84-bet.
5. B.Fayzullayev va boshqalar. "Qishloq xo'jalik entomologiyasi karantin asoslari bilan" Samarqand.2016, 62-bet.



TOK KANASI ZARARKUNANDASINING HAYOT KECHIRISHI VA UNGA QARSHI KURASHISH USULLARI

Botirova Durdigul Rustam qizi
Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Uzumchilik mamlakatimiz qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Shunindek, O‘zbekistonning tabiiy iqlim sharoiti bu yerda xilma-xil uzum navlarini yetishtirish imkoniyatini beradi. Biroq, buning uchun tokga turli zararkunandalar tushishini oldini olishimiz lozim. Chunki, ular sababli hosilning sifati va miqdori kamayib ketadi. Shunday ekan, ushbu maqolada O‘zbekistonda keng tarqalgan zararkunandalardan biri tok kanasi bilan yaqindan tanishib chiqib, unga qarshi kurash usullarini o‘rganamiz.

Kalit so‘zlar: Tok kanasi, zararkunanda, g‘udda, o‘simta, barg, kurtak, oltingugurt qaynatmasi.

O‘zbekistonning iqlim sharoiti uzumchilikni rivojlantirish, ulardan yuqori sifatli va mo‘l hosil olish uchun juda qulay. Yetishtirilayotgan uzum mahsulotlari o‘zining vitaminlarga boyligi, shiraligi va to‘ylimliligi bilan inson salomatligi uchun foydali hisoblanadi. Tokzorlardan har doim mo‘l va sifatli hosil olish uchun ularning asosiy zararkunandalari qarshi kurash ishlarini doimiy ravishda o‘tkazish lozim.

Tok kanasi nafaqat O‘zbekistonning barcha hududlarida balki, dunyo bo‘yicha keng tarqalgan zararkunandalardan biri hisoblanadi. U ko‘z ilg‘amaydigan darajada mayda mavjudot bo‘lib kattaligi 0,14-0,16 mm dir. Uni binokulyar yoki 15-20 marta kattalashtirib ko‘rsatadigan lupalar yordamida ko‘rish mumkun. Tok kanasining tashqi tuzilishi cho‘ziq, 2 juft oyoqqa ega bo‘lib, tanasining oxirida uzun qillari bor.

Barglarda g‘uddalar mavjudligiga qarab tokda ushbu zararkunanda borligini aniqlash mumkun. Bunda, g‘uddalar bargning ustki tomonida bo‘lib, ost tomonida esa chuqurchalar bor. Ularda oldin oq-kumush, keyinchalik qizg‘ish-qo‘ng‘ir tus oladigan hujayra o‘simalari qoplanib olgan bo‘ladi.

Tok kanasi po‘stloq osti hamda kurtak atrofida qishlab chiqadi. Bahorda ya‘ni aprel oxiri may boshlarida uyg‘onib, yangi paydo bo‘lgan barglarni zararlay boshlaydi. U quyidagi davrlarni o‘tkazadi. Ya‘ni tuxum, 1-nimfa, 2-nimfa va yetuk zot. Otalangan tuxumdan urg‘ochi va erkak zot, otalanmagandan esa faqat erkak zot chiqadi. Mavsumda bir necha bo‘g‘in beradi.

Tok kanasi ko‘proq maxalliy nav uzumlarni zararlaydi. Zararlangan tok rivojlanishdan orqada qoladi, hosilning sifati yomonlashadi va miqdori kamayadi.

Qarshi kurash chora-tadbirlari tokzor yaratish uchun joy tanlash, sog‘lom ko‘chat ekishdan boshlanadi. O‘sayotgan tokning himoya qilish faoliyati zararkunandalar tarqalishi va hayot kechirishini mavsum davomida kuzatishlar olib borish va ularning natijalarini taxlil qilish asosida tashkil etiladi. Zararkunandalarga qarshi kurash choralar o‘z ichiga agrotexnik tashkiliy tadbirlar, kimyoviy va biologik kabilarni o‘z ichiga oladi.

Tok kanasining hayot kechirishi, zararlarini hisobga olib, unga qarshi kurash usularini qo‘llaymiz. Buning uchun birinchi navbatda tok poyasini shpalerlarga ko‘tarish lozim. Chunki, tok kanasi asosan yerda yotgan uzumlarni zararlaydi.

Zararkunandaga qarshi kurashda agrotexnik tadbirlardan foydalanish lozim. Buning uchun to‘g‘ri yer tanlash, tokni dastlabki o‘suv davridan boshlab yaxshilab parvarish qilish lozim. Tok kesish, xomtok qilish ishlari o‘z vaqtida sifatli amalga oshirilishi kerak. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida uchraydigan zararkunandalarga chidamli bo‘lgan navlarni tanlab ekish lozim.

Zararkunandaga qarshi kurashda ikkinchi usul sifatida kimyoviy kurashdan foydalanish yuqori samara beradi. Buning uchun kuzda 5 l, ko‘klamda va yozda 0,5 l ohak oltingugurt qaynatmasi purkaladi. Bu usulda zararkunandalar butunlay yo‘q qilinadi, kasallikning rivojlanishi to‘xtatiladi. Chunki, oltingugurt qaynatmasi tez ta’sirchan hamda samaralidir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkunki, tok kanasi O‘zbekistonning barcha rayonlarida keng tarqalgan, mayda ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan zarakunanda hisoblanadi. Uni oldini olish uchun agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida samarali bajarish lozim. Shuningdek, kimyoviy kurash sifatida oltingugurt qaynatmasidan foydalanish tavsiya etiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Yunusov va boshqalar. "Bog'dorchilik" "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent.2016, 152-bet.
2. Sharapova M.M. "Uzumchilik sanoati" Buxoro-2006, 91-bet.
3. U.I.Mamatov. "Uzum yetishtirish" "Agrobank" ATB. 2021, 86-87 betlar.
4. Sh.Temurov. "Uzumchilik" "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2002, 64-bet.
5. "Tok kasalliklari, zararkunandalari va ularga qarshi kurash" ". "O'zvinosanoat-xolding" xolding kompaniyasi. "Uzumsharobservis" unitar korxonasi. Toshkent-2013, 2-bet.



TOKNI ISHKOMDA VA HIYOBON USULIDA O'STIRISHNING SAMARADORLIGI VA KAMCHILIKLARINI O'SUV DAVRIGA TA'SIRI

Botirova Durdigul Rustam qizi
Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Tokning hosilini oshirish, sifatini yaxshilash hozirgi kundagi dolzarb muommolardan biri hisoblanadi. Shunda ekan, tomorqa xo'jaliklarida, katta maydonlarda turli xil o'stirish usullaridan foydalanilib, tokzor maydonlari kengaytirilib kelinmoqda. Shunday ekan, ushbu maqlolada tokni ishkomda va hiyobon usulida o'stirishning samaradorligi va kamchiliklari bilan tanishib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Ishkom, hiyobon, tok, uzum, tup, novda, tol tupi, poya, tomorqa, qator oralig'i, tup orasi.

Bugungi kunda O'zbekistonda qishloq xo'jaligining tarmoqlaridan biri hisoblangan uzumchilikning iqtisodiyotimizdagи o'rni juda kattadir. Darhaqiqat, tok o'simligi va uning mahsulotlari boshqa ko'p yillik o'simliklar ichida alohida o'rн tutadi. Respublikamizning tabiiy iqlim sharoiti bu yerda uzumni har xil muddatlarda pishishiga imkon yaratadi. Uzumdan har xil maqsadlar uchun foydalanilib, yangiligidan iste'mol qilinadi, tashishga chidamlilligi vasovutgichlarda hamda maxsus omborlarda uzoq saqlanishi tufayli kelgusi yilning may oyigacha ham saqlanadi.

Shuningdek, uzum oziq-ovqat va vino sanoati uchun yaxshi xomashyodir. Shunday ekan, o'z navbatida uzumga bo'lган talab ham ortib bormoqda. Shuning uchun ham biz tokni turli usullar orqali o'stirish natijasida sifatli hamda mo'l hosil olishga harakat qilamiz. Keng tarqalgan hamda qadimgi tok o'stirish usullaridan biri bu tokni ishkom usulida o'stirishdir.

Tokni ishkomda o'stirish qadimgi usullardan hisoblanib, Toshkent vohasi va Farg'ona vodisida, ayniqsa tomorqa bog'larida ko'p uchraydi. Bunda ishkom deganda toklarni ko'tarib o'stirish uchun poya va bag'azlardan qurilgan arksimon so'ri tushuniladi. Bu usulda asosan xo'raki va mayizbop navlar o'stirilib kelinadi. Tokni ishkomda o'stirish uchun birinchi navbatda tuplarning qator oralig'i 3,5-5,5 m, tuplar orasi 2,5-3,0 m bo'lishi kerak. Hamda, 5-6 m uzunlikdagi tol tupidan 0,5 m qochirib yerga qadab chiqiladi. Ikkala tomondagi poyalar egilib, bir-biriga bog'lanadi. Bunda, ishkomning balandligi 2,5-3,0 m bo'lishi kerak.

Yerga ko'milgan poyalarga ko'ndalangiga 0,8-1 m oraliqda yog'och poya yoki simbag'az bog'lab chiqiladi. Natijada, ishkom hosil bo'ladi. Bunda ikkita ishkom orasida joylashgan tok novdalarining yarmi bir tomoniga, ikkinchi yarmi ikkinchi tomoniga taralib bag'azlarga bog'lanadi. Shuningdek, ishkomda o'stirilayotgan tokni kesishda qoldiriladigan hosil beradigan va o'rnbosar novdalar sonini oshirish lozim.

Bu usuldan qadimdan foydalanib kelinishiga qaramasdan bir nechta kamchiliklarni o'z ichiga oladi. Ya'ni mexanizatsiya yordamida yerga ishlov berish, kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurashish bir muncha mushkul hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, har 3-4 yilda ishkomni qurish, uni vaqtı-vaqtı bilan yangilab turish ko'p mexnat hamda material talab etadi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy jihatdan tejamlikka olib kelmaydi. Biroq, bu usulni kichik maydonlar va tomorqa yerlarida qo'llash yuqori samara beradi.

Ammo, yuqorida aytib o'tilgan kamchiliklarga qaramasdan bu usulning ham samarali tomonlari bor. Ya'ni biz xo'raki va kishmishbop uzum navlarini ishkomda o'stirsak, tokning o'suv davrida fiziologik jarayonlarning normal kechishi natijasida mo'l hamda sifatli hosil olishga erishamiz.

Tokni ikkinchi, hiyobon usulida o'stirish juda keng tarqalgan usullardan biri hisoblanib, O'zbekistonda o'z o'rni va ahamiyatiga ega. Chunki, mamlakatimizning issiq iqlim sharoitida o'stirilayotgan toklar quyosh nuridan yetarlicha foydalanadi. Shu bilan birgalikda, havo almashinish yuqori darajada bo'lганligi sababli, tokning kasallik va zararkunandalarga chalinish ehtimoli bevosita kamayadi. Hosil ham o'z navbatida sifatli va mazali bo'lib, savdo bozorida yanada keng o'rн olishiga sababchi bo'ladi.

Bu o'stirish usuli uchun maydon tashkil etilayotganda tokchilik uchun zarur bo'lган texnikalarni kirishini ham hisobga olinsa maqasadga muvofiq bo'ladi. Tok tuplarini hiyobonlarning ikki chetiga 2,5-3 m oraliqda ekib chiqish lozim. Uzumzor tashkil etishda xo'raki navlardan foydalansak bo'ladi.



Toklarni hiyobon usulida o'stirish samaradorligi jihatdan yuqori hisoblanib, sifatli va mo'l hosil olish imkoniyatini beradi. Shu bilan birgalikda, dam olish maskanlari, ilmiy tadqiqot muassasalarini hamda hovlilarda tokzor hiyobonlarini tashkil etish estetik zavq bag'ishlashi bilan birgalikda qo'shimcha uzum hosillarini yetishtirish imkoniyatini beradi. Issiq paytlarda insonlarni quyosh nuridan himoya qilib, hordiq chiqarishlari uchun xizmat qiladi. Uzum hosilga kirkandan so'ng esa go'zal manzara hosil qilib, undan bahra olishga zamin yaratadi.

Biroq, yuqorida aytib o'tilgan foydali jihatlariga qaramasadan, bir necha kamchiliklarni o'z ichiga oladi. Ya'ni tokzor hiyobonlarini tashkil etish uchun materialarning ko'p ketishi, ayniqsa katta maydondagi uzumzorlarni tashkil etishda iqtisodiy tomonidan ko'p xarajatga olib keladi. Hamda parvarish ishlarini olib borish, hosilni yig'ishtirishda ishchi kuchini ko'proq talab etadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkunki, qadimdan foydalanilib kelinadigan birinchi usul hisoblangan tokni ishkomda o'stirishning samarasi va kamchiliklarni hisobga olgan holda, bu usuldan katta maydonda uzumzorlar tashkil etishda foydalanish tavsiya etilmaydi. Biroq, tokni ishkomda o'stirishda, o'suv jarayoni normal kechib, hosildorlik sifat jihatdan yuqori bo'ladi.

Ikkinci usul tokni hiyobon usulida o'stirish ham o'z navbatida samarali hisoblanib, tokning o'suv davrida unga yaxshi ishlov berish uchun imkon yaratadi. Natijada, hosil sifatli hamda bozor talab bo'ladi. Shuningdek, bu usul orqali nafaqat sifatli hosil olishga balki, insonlarga estetik zavq bag'ishlashga, hududlardan unumli foydalnishga erishamiz. Biroq, bu usul ham katta maydondagi tokzor tashkil etishda foydalanish uchun tavsiya etilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Yunusov va boshqalar. "Bog'dorchilik" "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent.2016, 143-bet.
2. U.I.Mamatov. "Uzum yetishtirish" "Agrobank" ATB. 2021, 45-bet.
3. Sh.Temurov. "Uzumchilik" "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2002, 96-bet.
4. R.M.Abdullayev va boshqalar. "Uzum yetishtirish va mayiz quritishning zamanoviy texnologiyasi" O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti. Toshkent 2011, 12-bet.
5. Iminov.I "Mevachilik va Uzumchilik" Andijon-2007y, 33-bet.



ВЛИЯНИЕ, ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ДЕФЕКТЫ МЕТОДОВ ВЫРАЩИВАНИЯ ВИНОГРАДНИКА ВО ВРЕМЯ РОСТА НА ЗЕМЛЕ

Ботирова Дурдигуль Рустам кизи

Студент Гулистанского государственного университета

Аннотация: В настоящее время существует несколько способов выращивания лозы в зависимости от районных условий земли. Итак, в этой статье мы рассмотрим один из самых распространенных способов выращивания виноградника на земле. Давайте посмотрим на влияние на период роста виноградника, изучив достоинства и недостатки этого метода.

Ключевые слова: Виноградная лоза, растущая в земле, тепло, влажность, веточки, бутоны, корни, лозы, бутоны, ветки, период вегетации.

Виноградная лоза - одно из древнейших цветущих растений, а ее предком было светолюбивое растение в виде куста, которое растет на открытых участках, где светит солнце. Позже они приспособились к жизни в лесу, все больше вовлекаясь в борьбу за свет. Самые ранние представители поколения виноградников выросли в Арктике, где когда-то был теплый климат. Однако во время ледникового периода некоторые течения в Арктике умерли, а другие двинулись на юг. В Северной Америке и Восточной Азии его древние виды сохранились до наших дней. В настоящее время все больше внимания уделяется винограднику. Это, в свою очередь, требует расширения виноградников, создания новых методов и использования лоз, подходящих для почвенных условий.

Виноград не утратил своего значения благодаря своему вкусу, целебным свойствам, богатству витаминами и экономичности. В настоящее время используются разные методы выращивания для увеличения урожайности и улучшения качества в зависимости от условий местности, где выращивается виноградная лоза. Один из таких древних методов - выращивать виноградники на земле.

В жарких и засушливых регионах Таджикистана, Туркменистана, Азербайджана и Узбекистана мы видим широкое распространение методов выращивания виноградников на земле, то есть без всасывания. Из-за летней жары и недостатка влаги мы видим, что лозы не гниют, даже когда они касаются земли.

Первый способ вырастить лозу в земле - посадить лозу в специальные горшки. Если ширина бутонов берется на расстоянии 3–3,5 м, лозы следует высаживать в один ряд, а если на расстоянии 6–7 м - в два ряда. Затем из середины насыпи удаляют оросительные канавы шириной 2-2,5 м и глубиной 80-100 см. По краям бутонов высаживают лозы с интервалом 2,5–3 м. Лозы высаживаются наружу в виде 4-6 ржавчин, которые растут на земле.

При втором способе лучше выращивать лозы на высоте 50-70 см над землей. В этом случае концы ремней состоят из двух пар отдельных столбов, а более тонкие ремни прикрепляются к вилкам. Этот метод помогает удерживать лозы от соприкосновения с землей, улучшает аэрацию ветром, снижает риск грибковых заболеваний и улучшает качество урожая.

Если мы не закапаем куст в период вегетации, следует удалять только незрелые, медленнорастущие части. В конце апреля - начале мая следующего года желательно удалять слаборастущие, бесплодные, распускающиеся ветви в засушливый период.

Оба эти метода - эффективны. Потому что для этого не нужно много денег. В то же время глубокие каналы не испытывают недостатка влаги в течение вегетационного периода из-за полива зимой и ранней весной, что приводит к меньшему орошению. В результате хороших физиологических процессов в течении роста виноградников, повышается качество продуктивности.

Однако эти методы также имеют свои недостатки и могут доставлять неудобства при выращивании лоз. Поскольку виноградная лоза выращивается на земле, невозможно механизировать междурядье в течение вегетационного периода, и мы можем наблюдать, что соцветия опыляются не полностью.

В результате, выращивания виноградника на земле, долгое время было одним из самых распространенных методов, в основном в районах с более жарким и сухим летом. Эффективность этого метода повышает урожайность в период вегетации, но в результате своих недостатков вызывает неудобства при обработке междурядий. Не рекомендуется



выращивать виноградник на земле на больших площадях, так как для этого требуется много рабочей силы.

Использованная литература:

1. Ю.И.Маматов. «Выращивание винограда» АКБ «Агробанк». 2021, с.44.
2. Шарапова М.М. «Виноградарство» Бухара-2006, с.49.
3. Ш.Темуров. Государственное научное издательство «Виноградарство», Национальная энциклопедия Узбекистана. Ташкент 2002, с.93.
4. Р.Юнусов и другие. "Садоводство" Издательство "Национальное общество философов Узбекистана". Ташкент, 2016, стр.8.
5. Абдуллаев Р.М. и др. «Современные технологии выращивания винограда и сушки изюма» Издательство «Вентилятор» Академии наук Республики Узбекистан. Ташкент 2011, стр.11.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 31-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(23-қисм)

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

Эълон қилиш муддати: 31.08.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000